TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ilmiy maslahatchi**: Perdeshova Nargiza Yesenbayevna**
ChDPU Umumiy pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
Rayimjonov Samandar Ubaydulla o'g'li
rayimjonovsamandar97@gmail.com +998947888005
Raimov Shohruhmirzo Ikromjonovich
Raimovsohruh679@gmail.com 94 028 83 28
ChDU Jismoniy madaniyat yo'nalishi 3- bosqich talabalari

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash. Inson salohiyatining sifati, odamlarning tabiiy va ijtimoiy muammolarga qarshi turishga tayyorligi ko'p jihatdan ta'lim tizimi faoliyati samaradorligiga bog'liqligi dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, ta'lim, ta'limdagi texnologiyalar, raqamli madaniyat, ta'limni modernizasiya qilish.

Аннотация : В статье использование цифровых технологий в системе образования, определение приоритетов развития образовательного процесса на основе анализа их возможностей. Важно, что качество человеческого потенциала, готовность людей к решению природных и социальных проблем во многом зависит от эффективности системы образования.

Ключевые слова: цифровизация, образование, технологии в образовании, цифровая культура, модернизация образования.

Annotation : In the article, the use of digital technologies in the educational system, the identification of priorities for the development of the educational process based on the analysis of their possibilities. It is important that the quality of human potential, people's readiness to face natural and social problems largely depends on the effectiveness of the educational system.

Keywords: digitization, education, technologies in education, digital culture, modernization of education.

KIRISH

Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi" [1].

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot bo'yicha hozirgi vaqtda raqamli ta'lim muhitining tarkibi masalasi munozarali hisoblanadi. Ko'pchilik olimlar raqamli ta'lim muhitlarini strukturalash muammolarini o'rganishmoqda". Ushbu xususiyatlar raqamli axborot muhitining imkoniyatlariga juda mos keladi, bu talabalarni faollik, harakatchanlik va boshqalarga yo'naltiradi. Ta'lim

jarayonini raqamlashtirishda axborot texnologiyalardan foydalanish bo'yicha S.N.Zlobina, L.A.Zyateva, G.S.Isakova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga loyiqdir. Ular o'z ilmiy izlanishlarida raqamliinfratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha qator yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Ko'plab izlanishlarning tahlilariga asosan raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi[2-134].

Bunga qo'yidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin: katta hajmli axborotlar bilan ishlashni ta'minlaydi; ta'lim-tarbiya jarayonini shafoflik, ochiqlik va tizimliligini kengaytiradi;ta'lim jarayonini diagnostika va monitoringqilish tizimini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi Ta'lim tizimida axborot texnologiyalari infratuzilmasidan foydalanish, me'yoriy-huquqiy qo'llab-quvvatlash o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratadi.

MUHOKAMA

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarni o'qitish sifatini tubdan yaxshilashga, ularning barcha zarur qobiliyatlarini shakllantirishga, muammoni hal qilish uchun mavjud bo'lgan barcha raqamli vositalar, materiallar va xizmatlardan faol (ongli va ijodiy) foydalanish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Ta'lim muassasalarining raqamli transformatsiyasining asosi raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish eng samarali bo'lgan o'quv jarayonini shaxsiylashtirilgan tashkil etishga o'tishdir [3-25].

Ta'lim tashkilotlari faoliyatini o'zgartirish ta'limni raqamli transformatsiya qilis uchun normativ-huquqiy bazani o'zgartirishni talab qiladi.

Ko'plab izlanishlarning tahlilariga asosan raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi[4-12]. Bunga qo'yidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin: katta hajmli axborotlar bilan ishlashni ta'minlaydi; ta'lim-tarbiya jarayonini shafoflik, ochiqlik va tizimliligini kengaytiradi; ta'lim jarayonini diagnostika va monitoring qilish tizimini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi Hozirgi vaqtda ta'limni raqamli transformatsiyas vazifasi – ta'lim tizimini axborot jamiyati va raqamli iqtisodiyotning vazifalari, muammolari va imkoniyatlariga moslashtirish juda dolzarbdir. Ta'limni axborotlashtirish o'quvchilarning komptyuter savodxonligini shakllantirish va o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning tobora murakkablashib borayotgan vazifalarini hal etishga qaratilishi lozim. Bugungi kunda kompyuterlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va roli haqidagi fikr yana bir bor o'zgardi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda.Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur.

Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozimva bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish va IT-

kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish mumkin. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.https://uza.uz/oz/politics/zbekistonrespublikasi-prezidenti shavkat-mirziyeevning-oliy-25- 01-2020.
2. Петрова Н.П., Бондарева Г.А. Цифровизатsiя и цифровые технологии в образовании // Мир науки, культуры, образования. 2019. № 5 (78). С. 353–355. 6. Меняйся или уходи. Цифровое образование бросает вызов преподавателям вузов [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.poisknews.ru/theme/edu/31969/ (дата обращения: 30.03.2020)
3. Каракозов С.Д., Уваров А.Ю. Успешная информатизатsiя –трансформатsiя учебного процесса в цифровой образовательной среде // Проблемы современного образования. 2016.№ 2. С. 7–19.
4. Уваров А.Ю. Образование в мире цифровых технологий: на пути к цифровой трансформатsiи. М.: ГУ-ВШЭ, 2018. 168 с.